


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI**

"ANIQ, TENIKA VA TABIIY FANLAR" KAFEDRASI

"FIZIKA" FANIDAN

LABORATORIYA ISHLANMASI



2023-2024 – o‘quv yili

Mazkur laboratoiya ishlanmasi "Aniq, texnika va tabiiy fanlar" kafedrasining 2023-yil _____dagi ____-sonli yig'ili shida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Kafedra mudiri:

PhD. B.Eshpo'latov

Mazkur laboratoriya ishlanmasi NIU O'quv-uslubiy kengashining 2023 yil "30" avgustgi № 1 –sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Ushbu laboratoriya ishi 60710600- Elektr energetikasi, 60721500- Konchilik ishi, 60711400- Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish ta'lif yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, Umumi fizika kursining «Mexanika, molekulyar fizika, elektromagnitezim, optika, atom va yadro» fizikasi bo`limlaridan laboratoriya mashg'ulotlaridan ko'rsatmalar keltirilgan.

Tuzuvchi: Navoiy innovatsiyalar universiteti "Aniq, texnika va tabiiy fanlar" kafedrasini dotsenti p.f.f.d.(PhD) B.N.Xushvaqtov

6-LABORATORIYA ISHI

SUYUQLIKLARNING ICHKI ISHQALANISH KOEFFITSIYENTINI STOKS USULI BILAN ANIQLASH

Ishning maqsadi: Suyuqlikning qovushqoqlik koeffitsiyentini tajriba yo`li bilan aniqlash.

Kerakli asbob va qurilmalar: Uzunligi 1–1,5 m, diametri 3–4 sm bo`lgan 2 ta silindrik shisha idish, sekundomer, mikrometr, paxta moyi va glitserin, diametri 0,3 – 0,4 sm bo`lgan po`lat yoki qo`rg`oshin sharchalar.

Nazariy qism

Suyuqlikning tarkibi va molekulyar tuzilishiga bog`liq bo`lgan asosiy xossalardan biri qovushqoqlikdir. Qovushqoqlikning molekulyar mexanizmini o`rganishda quyidagi manzarani fikran ko`z oldimizga keltiraylik. Bizga katta qatlamlardan tashkil topgan suyuqlik berilgan bo`lib, uning biror qatlamini sirtiga parallel ν , tezlik bilan siljityaylik. Bu holda xarakterlanuvchi qatlamga tegib turgan qatlam ham unga ergashib, ν tezlik bilan ko`chadi. Ammo bu ν tezlik birinchi qatlamning tezligi ν dan kichik bo`ladi. Sabab ikkinchi qatlamning ko`chishiga unga yondoshgan uchinchi qatlam to`sinqinlik qiladi.

$$m \frac{d^2 x}{dt^2} + m d l \varphi = 0$$

Boshqacha qilib aytganda, qatlamlar molekulalari orasida tutinish kuchi bo`lganligi uchun, ular bir – birlari bilan o`zaro ta'sirlashadilar, ya'ni yuqoridagi qatlamda joylashgan molekula quyi qatlamdagi molekulani o`ziga tortib ergashtirib ketsa, pastdagi qatlamda joylashgan molekula uni o`ziga qoldirishga harakat qiladi. Aytilganlardan, harakatlanuvchi qatlamdan eng quyida joylashgan qatlamgina harakatsiz qoladi. Shu bilan birga qatlamlarning bir–biriga nisbatan ko`chishida biz yuqorida qayd qilgan, xodisa suyuqlik molekulalarining qatlamlaridagi betartib ko`chishidan tashqari, ularning qatlamlararo betartib o`tishlari ham sodir bo`ladi.

Buning natijasida m massaga ega bo`lgan har bir molekula bir qatlamdan ikkinchi qatlamga o`tishda o`zining harakat mikdori $\mathbf{m} \cdot \Delta \mathbf{v}$ ga o`zgaradi.

Suyuqlikning barcha molekulalarini bir xilda massaga ega deb qarab qo`shni qatlamlarga o`tishdagi $m \cdot \Delta v$ ni bir sekund davomida yondosh qatlamlarning biridan ikkinchisiga o`tgan molekulalar soniga ko`paytirib, 1 sekundagi harakat miqdori o`zgarishining yig`indisini topamiz. Bu esa qatlamlarni ko`chishga majbur etuvchi tashqi kuchga tengdir. Bu kattaliklar orasidagi bog`lanishni Nyuton quyidagi ko`rinishda ifodalagan.

$$F = \eta \frac{d\mathbf{v}}{dt} \cdot S \quad (1)$$

va uni ichki ishqalanish qonuni deb atadi. Bu yerda tezlik gradiyenti suyuqlik harakati yo`nalishiga perpendikulyar yo`nalgan.

Agar tezlik gradiyenti $\frac{dv}{dz} = 1$ ва юза $\mathbf{S} = \mathbf{1}$ ga teng desak

(1) dan ichki ishqalanish koeffitsiyenti son jihatdan qatlamlar orasidagi tezlik gradiyenti 1 birlikka teng bo`lganda ularning 1 birlik yuzasiga ta'sir etuvchi ishqalanish kuchini xarakterlaydi SGS sistemasida qovushqoqlik birligi

$\eta = 1 \text{ dina } 1 \text{ sek}/1 \text{ sm}^2 = \mu \text{ (Pz)}$ olinadi.

ρ -zichlik, η -dinamik qovushqoqlik v - kinematik qovushqoqlik orasida kuyidagi bog`lanish mavjud.

$$\nu = \frac{\eta}{\rho} \quad (2)$$

Si birliklar sistemasida kinematik qovushqoqlikning birligi $\nu = m^2 / c \epsilon \kappa$

Gazlarda qovushqoqlik –temperatura ortishi bilan ortsa, suyuqlikda esa aksincha kamayadi. Stoks usuli suyuqlikning qovushqoqligini uning ichidagi biror jismning harakatini kuzatish orqali aniqlashga asoslangandir.

Shunga ko`ra, biror suyuqlik ichidan \mathbf{m} massali va \mathbf{r} radiusli metall sharchaning \mathbf{P} og`irlik kuchi ta'siridagi harakatini olib qaraylik. Bu holda sharchaga og`irlik kuchidan tashqari, yana ikkita kuch ta'sir etadi. Ulardan biri

sharchaga suyuqlikning ichki ishqalanish kuchi F_η ikkinchisi suyuqlikka botirilgan sharchani yuqoriga itaruvchi F_A .

Arximed kuchi. F_η ichki ishqalanish kuchi stoks qonuniga ko'ra suyuqlik ichida harakatlanayotgan jism o'lchamiga, uning ϑ tezligiga va suyuqlikning qovushqoqligiga proporsional bo`lib, uning son qiymati quyidagicha tenglikdan topiladi:

$$F_\eta = 6\pi r \vartheta \eta \quad (3)$$

Agar sharchaga qo'yilgan kuchlarning teng ta'sir etuvchisi nolga teng bo'lsa, sharchaning suyuqlik ichidagi harakati tekis bo`lib, unga nisbatan suyuqlikning harakati laminar bo'ladi.

Hozirgi misolda sharchaning harakati vertikal yo`nalishda bo'lganligidan unga qo'yilgan barcha kuchlar uning markazidan o'tuvchi to'gri chiziq bo'ylab joylashgan. Tekis harakat shartiga ko'ra, ularning vektor yig`indisi nolga teng bo'ladi, ya'ni:

$$\mathbf{P} + \mathbf{F}_A + \mathbf{F}_\eta = \mathbf{0} \quad (4)$$


yoki \mathbf{P} og`irlik kuchi yo`nalishiga proyeksiyalarda

$$\mathbf{P} - \mathbf{F}_A - \mathbf{F}_\eta = \mathbf{0} \quad (5)$$

$$(5) \text{ dagi Arximed kuchi: } \mathbf{F}_A = \frac{4}{3}\pi r^3 \rho_0 g \quad (6)$$

$$\text{tenglikdan og`irlik kuchi } \mathbf{P} = \mathbf{m}\mathbf{g} = \frac{4}{3}\pi r^2 \rho g \quad (7)$$

tenglikdan topiladi. Bu yerda $\mathbf{m} = \frac{4}{3}\pi r^3 \rho_0$ sharcha hajmida siqib chiqarilgan suyuqlikning massasi, ρ_0 – suyuqlikning zichligi \mathbf{g} – og`irlik kuchi tezlanish



(3) va (5), (6), (7) tengliklardan kombinatsiyadan qovushqoqlikning

$$\eta = \frac{2r^2(\rho - \rho_o)}{9g} \cdot g \quad (8)$$

hisoblash formulasini topamiz. Bu yerda ρ - metall sharchaning zichligi, g - uning suyuqlikda tushish tezligi.

Laboratoriya sharoitida (8) bo`yicha qovushqoqlig koeffitsiyenti η ni hisoblashda g tezlikni aniq o`lchash mumkin emas. Shuning uchun birining qovushqoqligi ma'lum, ikkinchisiniki esa noma'lum $g=l/t$ munosabatdan foydalanib

$$\eta_u = \eta_o \frac{\rho - \rho_u \cdot t_x}{\rho - \rho_o \cdot t_j} \quad (9)$$

ifoda olinadi. Bu yerdagi η_{ch} qovushqoqligi aniqlanish kerak bo`lgan suyuqlikning ρ_x zichligi, etalon suyuqlikning η_o qovushqoqligi va ρ_o zichligi qo'llanma oxiridagi tegishli jadvaldan olinadi. Qovushqoqligi noma'lum suyuqlikda ρ zichlikka ega bo`lgan sharchaning tushish vaqt t_{x1} va uning etalon suyuqlikda tushish vaqt t_0 lar sekundomerlarda o`lchanadi. Tajriba davomida bosim va temperatura o`zgarmas deb qaraladi.

$$8\text{-formulaga } g = \frac{l}{t} \text{ qo'ysak: } \eta = \frac{2r^2(\rho_c - \rho_{sc}) \cdot g \cdot t}{9l} \quad (10)$$

Bu yerda: $\eta = \frac{2r^2(\rho_c - \rho_{sc}) \cdot g \cdot t}{9l}$ - o'zgarmas kattalik. Shuning uchun (10) – formula ko'rinishi: $\eta = Cr^2t$ (11)

Asbobning tuzilishi.

Uzunligi 100 sm dan kam bo`lmagan va diametri 3 sm silindrik shisha idishning A ap B sathiga belgilar qo`yiladi. Bu silindrik idish taglikka mahkamlanib, uni taglik vintlari va shovun yordamida vertikal o`rnataladi. Silindr ichiga sig`adigan uzun S ilgak ish bajarilayotganda idish ichiga tushirib qo`yiladi: u sharchalarni qaytarib olishga mo`ljallangan.

Ishni bajarish tartibi.

1. Tajriba etalon suyuqlik uchun bajariladi.
2. Silindrik shisha idishga tekshirilayotgan suyuqlik sathi yuqoridagi belgidan kamida 5–8 sm baland qilib qo`yiladi. Chunki suyuqlikka tashlangan sharchalar kamida shuncha masofadan so`ng tekis harakat qila boshlaydi.
3. Termometrdan uy temperaturasi aniqlanadi. Ushbu qo`llanmadagi jadvaldan suyuqlikning uy temperaturasiga mos kelgan zichligi ρ_0 yozib olinadi.
4. Chizg'ich bilan $AB = \ell$ o`lchanadi.
5. Mikrometrda sharchaning r radiusi o`lchanadi.
6. Sekundomerni qo`lga olib, sharcha suyuqlik sathining o`rtasiga tashlanadi, ko`zni esa yuqori belgi ro`parasida tutib turiladi. Sharcha yuqorigi belgidan o`tayotgan paytda sekundomer yurgiziladi. Darhol diqqat pastgi belgiga qaratiladi. Sharcha bu belgidan o`tayotganda sekundomer to`xtatiladi. Sekundomerning ko`rsatishi sharchaning masofani bosib o`tishi uchun sarflangan vaqtini xarakterlaydi.
7. Qovushqoqligi noma'lum suyuqlik uchun ρ_x qo`llanma oxiridagi jadvaldan olinadi, t_x vaqt sekundomerda o`lchanadi.

(9) formula yordamida glitserinning qovushqoqlik koeffitsiyenti hisoblanadi

№	r	t	ℓ	η	Δ_{η}	$\varepsilon = \frac{\Delta_{\eta}}{\eta} \cdot 100\%$
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
o`rt						

Sinov savollari

1. Arximed qonunini ta'riflab bering.

2. Stoks formulasini yozing. Bu formulaga kirgan kattaliklarni tushuntiring.

3. Suyuqlikning ichida harakatlanayotgan jismga qanday kuchlar ta'sir qiladi?

4. Ko`chirilish protsesslarini aytib bering.

5. Ishni bajarish tartibini gapirib bering.

6. Ishqalanish koeffitsiyenti qanday birlikda o`lchanadi?

Dinamik va kinematik yopishqoqlik to'g'risida tushuncha berihg